

**EPIGRAF ORQALI MATN MAZMUNINI OCHISH MASALALARI****Dovletmuradova Maxim Perdebay gizi***Ajiniyoz nomidagi NDPI Ellikqal'a fakulteti O'zbek tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi**E-mail: [maximdovletmuradova06@gmail.com](mailto:maximdovletmuradova06@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada epigrafning adabiy asar mazmunini ochishdagi o'rni va ahamiyati yoritiladi. Epigrafning badiiy matnga kirish vositasi sifatidagi funksiyasi, uning g'oyaviy yo'nalishni belgilashdagi roli hamda o'quvchini asar mazmuniga tayyorlashdagi vazifalari tahlil qilinadi. Shuningdek, epigrafning jahon va o'zbek adabiyotida qo'llanilishi misollar asosida ko'rib chiqiladi. Maqolada epigrafning matn bilan o'zaro bog'liqligi va uning asar mazmunini chuqurroq anglashga xizmat qilishi asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** epigraf, matn tahlili, badiiy asar, adabiyotshunoslik, paratekst, g'oyaviy yo'nalish, mazmun, kirish qismi, badiiy vosita, adabiy tahlil.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается роль и значение эпиграфа в раскрытии содержания литературного произведения. Анализируется функция эпиграфа как средства введения к литературному тексту, его роль в определении идеологического направления и его задачи в подготовке читателя к содержанию произведения. На примерах также рассматривается использование эпиграфа в мировой и узбекской литературе. В статье обосновывается взаимосвязь эпиграфа с текстом и его роль в более глубоком понимании содержания произведения.

**Ключевые слова:** эпиграф, анализ текста, литературное произведение, литературная критика, паратекст, идеологическое направление, содержание, введение, художественные средства, литературный анализ.

**Annotation.** This article discusses the role and significance of the epigraph in revealing the content of a literary work. The function of the epigraph as a means of introduction to a literary text, its role in determining the ideological direction, and its tasks in preparing the reader for the content of the work are analyzed. The use of the epigraph in world and Uzbek literature is also considered on the basis of examples. The article substantiates the relationship of the epigraph with the text and its role in a deeper understanding of the content of the work.

**Key words:** epigraph, text analysis, literary work, literary criticism, paratext, ideological direction, content, introduction, artistic means, literary analysis.

**KIRISH**

Epigraf — bu adabiy asar yoki uning alohida qismi (bob) boshida keltiriladigan, o'sha asar mazmuni va g'oyaviy yo'nalishini oldindan anglatib beradigan teran ma'noli ibora hisoblanadi. U maqol, matal, hikmatli so'z, she'r, qo'shiq yoki boshqa manbalardan olingan parcha ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Jahon adabiyotida epigraf XV asr boshlarida paydo bo'lgan bo'lib, keyinchalik, ayniqsa XIX asr romantizm adabiyotida keng qo'llanila boshlagan.



Yevropa va rus adabiyotining yirik namoyandalari — J.-J. Russo, A. Stendal, I. Gyote, F. Shiller, A. Pushkin, M. Lermontov, N. Gogol, L. Tolstoy kabi ijodkorlar epigrafdan asarlarida samarali foydalanganlar.

O‘zbek adabiyotida ham bu an‘ana davom etib, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor, O‘tkir Hoshimov, Omon Muxtor kabi yozuvchilar epigraf orqali asar mazmunini chuqurroq ochib berishga erishganlar.

Adabiyotda epigraf deganda asar yoki uning biror qismi boshida keltiriladigan, mazmunan chuqur ma‘noga ega iqtibos, hikmatli so‘z, maqol, matal yoki she‘riy parchani tushunamiz. U oddiy kirish emas, balki asarning asosiy g‘oyasini oldindan sezdirib beradigan, o‘quvchini matn ruhiga tayyorlaydigan muhim badiiy vositadir.

O‘zbek adabiyotida epigrafdan foydalanish XX asr adabiyotida ayniqsa faollashgan. Yozuvchilar epigrafni asar mazmunini ochib beradigan “kalit” sifatida qo‘llay boshlashgan. Masalan, G‘afur G‘ulom asarlarida epigraf xalq og‘zaki ijodiga yaqin bo‘lib, asar ruhini oldindan his qildiradi. Abdulla Qahhor hikoya va qissalarida epigraf orqali hayotiy muammolar va insoniy munosabatlar haqida dastlabki ishora beriladi. O‘tkir Hoshimov ijodida esa epigraf ko‘proq ma‘naviyat, vijdon va inson qalbi bilan bog‘liq g‘oyalarni ochishda xizmat qiladi. Omon Muxtor asarlarida epigraf ramziy va falsafiy mazmunga ega bo‘lsa, Abdulla Oripov she‘riyatida u vatan, hayot va inson taqdiri haqidagi fikrlarni chuqurlashtirishga yordam beradi.

Xolbuki, bu epigraf hikoyaga, hikoyada tasvirlangan jamiyatga, ana shu jamiyatning a‘zolariga tegishlidir”<sup>1</sup>.

“Demak, epigraf asar g‘oyasini, unda tasvirlangan voqealarni kitobxon aniqroq va to‘liqroq tushunishiga olib keladi”<sup>2</sup>.

Epigraf orqali matn mazmunini ochish masalasi adabiyotshunoslikda muhim o‘rin tutadi. Epigraf o‘quvchiga asarning asosiy g‘oyasini oldindan anglatadi va uni matnni to‘g‘ri tushunishga yo‘naltiradi. Ba‘zan epigraf bilan asar o‘rtasidagi bog‘liqlik ochiq bo‘ladi, ba‘zan esa yashirin bo‘lib, uni anglash uchun tahlil talab etiladi.

Shu jihatdan epigrafni tushunish asarni to‘liq anglashda muhim ahamiyatga ega. U nafaqat kirish vazifasini bajaradi, balki butun matnning g‘oyaviy yo‘nalishini belgilab beruvchi omil sifatida ham xizmat qiladi.

Erkin A‘zamning “Otoyining tug‘ilgan yili” qissasida bevosita klassik ma‘nodagi epigraf (asar boshidagi iqtibos) yo‘q, ammo asarning mazmun-mohiyatini ochib beruvchi va uning hayotiy pozitsiyasini belgilovchi asosiy ibora

<sup>1</sup> H. Umurov “Adabiyotshunoslik nazariyasi”. T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.

<sup>2</sup> E. Xudoyberdiyev “Adabiyotshunoslikka kirish”. T.: Sharq nashriyoti, 2008.



asar tahlillarida va qahramonning ichki dunyosida alohida urg‘u bilan keltiriladi. Bu ibora: “Aytsam — o‘ldirurlar, aytmasam — o‘lam” naqlidir. Asarda bu naqlning o‘z aksini topishi: Bosh qahramon xarakteri: Asar qahramoni Asqar Shodibekov — shartaki, to‘g‘riso‘z, atrofidagi g‘irromlik, soxtalik va maqtovlarga chiday olmaydigan yigit. U shu naqlga amal qilib, haqiqatni yuziga aytishni tanlaydi. Ijtimoiy muammolar va “oyna”: Asqar bu tamoyil bilan jamiyatga, talabalar hayotiga, ustoz-shogird munosabatlariga "ko‘zgu" tutadi. Uning bu xislati ko‘pchilikka yoqmaydi, natijada u ko‘plab to‘siqlarga duch keladi, ammo o‘zligini saqlab qoladi. Ta‘lim tizimi tanqidi: Asarda Mashrabning oti nega Mashrab, Otoy nechanchi yilda tug‘ilgan kabi tuturuqsiz savollar orqali, bilimdan ko‘ra konspekt va quruq yodlashga asoslangan ta‘lim tizimi, shuningdek, shunday tizimga moslashgan ustozlar obrazlari orqali tanqid qilinadi. Shaxsiy kechinmalar: Asqar shartakiligi tufayli ko‘ngil qo‘ygan qizidan ham, adabiyot tarixi darsidan ham ayriladi, ammo bu naql uning ichki erkinligi va haqiqatga bo‘lgan sadoqatini ko‘rsatadi. Xullas, ushbu naql qissa qahramonining ziddiyatli dunyosi va muallifning tanqidiy qarashini ifodalovchi asosiy badiiy vositaga aylangan.

Abdulla Qodiriy, “O‘tkan kunlar” romanning muqaddimasida epigraf sifatida o‘zining mana bu so‘zlarini keltiradi: “Moziyga qaytib ish ko‘rmoq xayrlidir.”

Asardagi aksi: Bu shunchaki jumla emas, asarning butun falsafasidir. Yozuvchi o‘zbek xalqining eng og‘ir, parokandalik davrini (xonliklar davri) tasvirlash orqali o‘sha davrdagi xatolardan xulosa chiqarishga chaqiradi. Otabek va Kumushning fojiasi faqat shaxsiy ishq emas, balki ijtimoiy muhit va eskirgan qarashlar mevasi ekanini ko‘rsatib beradi.

Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasiga epigraf sifatida keltirilgan “Otning o‘limi itning bayrami” maqoli asarning asosiy g‘oyasini oldindan ochib beradi.

Bu epigraf shuni anglatadiki, bir inson yoki bir guruhning musibati boshqalar uchun foyda yoki “yutuq” bo‘lib ko‘rinishi mumkin. Hikoyada ham boylik va kuchga ega shaxslarning zaif va oddiy odamlar hisobidan foyda ko‘rishi, adolatsizlik va ijtimoiy tengsizlik holatlari tasvirlanadi.

Shu sababli epigraf asarning umumiy mazmunini qisqa va lo‘nda ifodalab, o‘quvchini oldindan hikoyadagi adolatsizlik ruhiga tayyorlaydi.

Omon Muxtor romanlarini deyarli epigrabsiz holatda tasavvur qilib bo‘lmaydi. Muallif bir asarga bitta epigraf bilan cheklanib qolmaydi. Masalan: “Ko‘zgu oldidagi odam” romanida muallif sarlavhadan keyin bir nechta epigrafni ketma-ket qo‘llagan. Bu epigraflarning manbalari esa turli xildir. Birining muallifi aniq, ma‘lum va mashhur xalq shoiri, birining muallifi esa noma‘lum – xalq qo‘shig‘i:



1.“Ming sir bor tuproqda” (Oybek) 2.“Mendan nima istaysan, ko‘zgu, Senga nima kerak!!”(Eski bir qo‘shiqdan)<sup>3</sup>.

Asrga tatigulik kun epigrafi — “Musibatnoma” asaridan olingan ikki misra she‘riy parcha.

***“Bu kitob jismu fig‘onimdir mening,  
Bu kalom jonu jahonimdir mening.”***

Ijodkor bu yerda asarni oddiy matn emas, balki o‘zining ichki kechinmalari va ruhiy holatining ifodasi sifatida ko‘rsatadi. “Jismu fig‘on” — azob, iztirob va qalb nolasini anglatadi. Demak, kitob muallifning dardlari, iztiroblari bilan to‘la.

Ikkinchi misradagi “jonu jahon” esa bu kalom (so‘z, asar) shoir uchun hayot mazmuni, butun borlig‘ining ifodasi ekanini bildiradi. Ya‘ni asar faqat yozuv emas, balki uning ruhi, hayoti va ma‘naviy olamidir.

Umuman, epigraf asarning hissiy-intim xarakterini ta‘kidlab, muallif ijodini yurakdan, ichki kechinmadan tug‘ilganligini ko‘rsatadi.

Erkin Vohidov “Ruhlar isyoni”

Tug‘ilgansan ozod, mudom ozod bo‘lib qol!

Nazrul Islom

Ushbu epigraf insonning tug‘ma erkinligini ulug‘laydi. Ya‘ni, inson dunyoga kelgan paytidanoq erkin bo‘lib tug‘iladi va hayot davomida ham shu erkinlikni saqlab qolishi kerak. Bu fikr asarning bosh g‘oyasini ochib beradi: ruhiy ozodlik, zulmga qarshi kurash va inson sha‘nini ulug‘laydi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, epigraf adabiy asarning mazmuni va g‘oyaviy yo‘nalishini oldindan ochib beruvchi muhim badiiy vositadir. U o‘quvchini asar ruhiga tayyorlab, muallifning asosiy fikrini qisqa va teran ifoda etadi. O‘zbek va jahon adabiyotida epigrafdan keng foydalanilgan bo‘lib, u ko‘pincha asar g‘oyasini “kalit” sifatida ochib beradi. Misollar shuni ko‘rsatadiki, epigraf ba‘zan ochiq, ba‘zan esa yashirin ma‘noga ega bo‘lib, uni anglash asarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Shu bois epigrafni tahlil qilish adabiy asarni to‘liq va to‘g‘ri idrok etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. H. Umurov “Adabiyotshunoslik nazariyasi”. T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
2. E. Xudoyberdiyev “Adabiyotshunoslikka kirish”. T.: Sharq nashriyoti, 2008.
3. O. Muxtor “To‘rt tomon qibla”. T.: Sharq, 2000.

<sup>3</sup> O. Muxtor “To‘rt tomon qibla”. T.: Sharq, 2000.